

2022-yil 18-iyul

“O`zkiyoimpeks” MCHJ va “Wondernet Express Investment Group” o`rtasida hamkorlik memorandumi imzolandi



Joriy yilning 18-iyul kuni “O`zkiyoimpeks” MCHJ hamda Gruziyaning “Wondernet Express Investment Group” kompaniyasi o`rtasida hamkorlik memorandumini imzolash marosimi bo`lib o`tdi. Mazkur memorandum orqali sheriklik munosabatlarini o`rnatish, uzoq muddatli, samarali va o`zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish maqsad qilingan. Endilikda “O`zkiyosanoat” AJ tizim korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilayotgan mineral o`g`itlar va kimyoviy mahsulotlarni Gruziyaning “Batumi” porti terminali orqali Yevropa mamlakatlari, Braziliya, Hindiston va boshqa ko`plab xorij davlatlariga eksport qilish imkoniyati yanada ortadi.





“O`zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati

source:

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/uzkimyoimpeks-va-wondernet-express-investment-group-urtasida-hamkorlik-memorandumi-imzolandi>